

O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA`LIM, FAN VA INNOVATSİYALAR VAZIRLIGI
BUXORO DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI
PEDAGOGIK TA`LIM KAFEDRASI

**“OLIY TA`LIM SIFATI – YANGI O`ZBEKISTON
TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING
MUHIM OMILI”**

RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN

MATERIALLARI

(2024 йил 10 oktabr)

Buxoro - 2024

“Oliy ta’lim sifati - Yangi O‘zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili” mavzusidagi // respublika ilmiy-amaliy anjumani. Buxoro: “Durdona” nashriyoti, 2024. 300 bet

Ilmiy-amaliy anjuman materiallari to`plamida Respublikamiz va Rossiya olimlari, soha mutaxassislari, ilmiy tadqiqodchilar, magisrtlar, talabalar maqolalari o`rin olgan.

Ilmiy anjumanning dasturiy qo`mitasi

1.	B.B.Ma`murov	-	Institute rektori, p.f.d., professor, rais;
2.	Sh.N.Murodov	-	Buxoro davlat pedagogika instituti ilmiy ishlar prorektori, f.f.f.d.(Phd), dotsent hamrais;
3.	G.R. Akramova	-	BuxDPI ilmiy tadqiqotlar va innovatsiyalar bo`lim boshlig`i, p.f.d (DSc), professor rais o`rinbosari.
4.	E.M. Muxtorov	-	BuxDPI dotsenti, p.f.n., a`zo;
5.	S.Q. Qahhorov	-	BuxDu professori, p.f.d. a`zo;
6.	B.Q.Xodjayev	-	BuxDu professori, p.f.n. a`zo;
7.	Sh.Sh.Olimov	-	BuxDu professori, p.f.d. a`zo;
8.	G.V.Izbullayeva	-	BuxDPI professori, p.f.d. a`zo;;
9.	M.Ya.Ergashov	-	BuxDPI professori, k.f.n., a`zo;
10.	G.T.Boymurodova	-	BuxDPI professori, p.f.d. (DSc), a`zo;
11.	Q.F.Abdullayev	-	BuxDPI dotsenti, a`zo;
12.	M.Farmonov		Vobkent tuman maktabgacha va maktab ta’limi bo‘limi boshlig`i a`zo;
12.	S.M.Umarova	-	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a`zo;
13.	A.N.Nusratov	-	BuxDPI dotsenti p.f.f.d.(Phd), a`zo;

Mas`ul muharrir:

S.M.Umarova pedagogika fanlari bo`yicha, falsafa doktori (PhD), dotsent

Taqrizchi:

Sh.SH.Olimov, pedagogika fanlari doktori, professor

G.V.Izbullayeva pedagogika fanlari doktori (DSc), professor

To`plovchi va nashga tayyorlovchi:

A.N.Nusratov

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldag'i PF-4947-son O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida, 2019 yil 29 apreldagi PF-5712-son «O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish kontseptsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi farmonlari va 2019 yil 16 yanvardagi Ta'lism sifatini nazorat qilish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi" to'g'risida, 2019 yil ma'naviy tarbiya kontseptsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risidagi 1059-son, 2020 yil 2 martdag'i PF-5953-son "2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Ilm, ma'rifat va raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish yili»da amalga oshirishga oid davlat dasturi to'g'risida"gi farmonlari, Prezidentimizning 2022-yil 29 yanvardagi "2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi me'yoriy huquqiy hujjatlar ijrosini bajarish maqsadida Buxoro davlat Pedagogika institutining 2024 yil 10 oktabrda o'tkaziladigan "Respublika ilmiy-amaliy anjumanini tashkil etish to'g'risidagi" 437-U sonli buyrug`iga asosan nashrga tavsiya etildi.

“Oliy ta’lim sifati – yangi O’zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili”

Bozorni segmentlarga bo‘lish strategiyasi (bozor bo‘linmalarini har xil segmentlashtirilgan belgilari bo‘yicha tanlash imkonini beradi);

tovarlami bozordagi o‘rnini belgilash strategiyasi (bozorning tanlangan segmentlarida potensial iste’molchilarning ko‘zi oldida korxona mahsulotining jozibali tomonlarini topish imkonini beradi);

maqsadli bozor strategiyalari korxonaga sotuv masalalarini yechishni, bozorning ma’lum ulushiga ega bo‘lish va mahsulotga nisbatan tanlangan segmentlarda ijobiy munosabatlarni shakllantirish imkonini beradigan marketing miksni shakllantiradi.

Shuningdek, marketing strategiyalari marketing harakatlari samarasini oshirish yo‘l-yo‘riqlari, usullarini ham qamrab oladi. Bu strategiyalar korxonaga maqsadli bozorda marketing komplekslarining alohida elementlaridan eng samarali foydalanish yo‘lini tanlash imkonini beradi. Ular orasida quyidagi strategiyalami ko‘rsatish mumkin: keng iste’mol tovarlar strategiyalari, maqsadli bozorda potensial iste’molchilar kutgan tovarlarni assortimenti va sifati yuqori bo‘lgani bilan ta’minlaydi; baho strategiyalari - tovarlardagi iste’molchi uchun qaarli deb hisoblangan axborotlami yetkazish bilan shug’ullanadi; taqsimlash strategiyalari - korxona tovarlarni iste’molchilarga kerakli vaqtida, talab etilgan joyda yetkazib berish bilan shug’ullanadi; tovarlarni muvaffaqiyat sari yetaklash strategiyalari marketing kompleksining barcha elementlarining iste’molchilar uchun foydaliligi to‘g’risidagi axborotlami iste’molchilarga yetkazish, bu strategiyaning asosiy vazifasi hisoblanadi.

Korxonaning xalqaro miqyosda faoliyat olib borishiga qarab xalqaro marketing strategiyalarining umumiyligi, yetarli uzoq muddatli (e’tiborli va kompaniya darajasida amalga oshiriladigan) moslashadigan yoki intellektual turlarini keltirish mumkin.

Har xil belgilarga qarab xalqaro marketingning bir qator turlarini kuzatish mumkin: *Geografik taqsimlanishi bo‘yicha* (ichki, milliy, regional, ko‘pmillatli, global); *tovarlaming bozorlarda taqsimlanishiga ko‘ra* (tor tovar turlari, bozorning tor bo‘lagi, keng tovar turlari, bozoming global segmenti) kabilar [4].

Bular tashqi muhitni tahlil qilish masalasi, tashkilot faoliyatini baholash va kelajakdagagi imkoniyatlar va xavf-xatarni baholash; korporativ vazifalarni, maqsadlarni va strategiyalarni aniqlash masalasi; tashkilot tarkibiga kiruvchi har bir bo‘limning maqsadlarini belgilash va ularning strategiyasini ishlab chiqish masalalariga aloqador bo‘ladi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, Oliy ta’limda marketing dasturining strategik yo‘nalishi Oliy ta’lim xizmati sohasida muassasasi mavqeい va holatiga bog‘liq.

Adabiyotlar:

1. Ergashxodjayeva Sh.Dj. Strategik marketing: darslik. - Toshkent: O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2014. — 240 b.
2. Kotler F., Keller K.L. Marketing. Menejment.14-ye izdanie. -SPB.: 2015. 800 s.
3. Nazarova F., Karimova R.N. Xalqaro marketing. -T.: TDIU, 2010. -262b.
4. Yusupov M.A., M.M. Abduraxmonova. Marketing. O‘quv qo’llanma. — T.: Iqtisodiyot, 2011. 190 b.

BO’LAJAK O’QITUVCHIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

Imomova Shafoat Mahmudovna

BuxDU Amaliy matematika va dasturlash texnologiyalari kafedrasi dotsenti,

s.m.imomova@buxdu.uz

УДК: 371

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ФОРМИРОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩЕГО УЧИТЕЛЯ

Имомова Шафоат Махмудовна - Доцент кафедры прикладной математики и технологий программирования БухГУ, s.m.imomova@buxdu.uz

UDC: 371

PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE FORMATION OF PROFESSIONAL COMPETENCE OF A FUTURE TEACHER

Imomova Shafoat Makhmudovna - Associate Professor of the Department of Applied Mathematics and Programming Technologies of BukhSU, s.m.imomova@buxdu.uz

Annotatsiya. Maqolada bo'lajak o'qituvchida kasbiy kompetentlikni shakllantirishning pedagogik jihatlari haqida ma'lumot berilgan.

Kalit so'zlar: kompetensiya, kasbiy kompetentlik, kompetentli yondoshuv, pedagog shaxs, motivatsiya, ta'lim-tarbiya, pedagogik texnologiya.

Аннотация. В статье представлена информация о педагогических аспектах формирования профессиональной компетентности будущего учителя.

Ключевые слова: компетентность, профессиональная компетентность, компетентный подход, педагогическая личность, мотивация, образование, педагогическая технология.

Annotation. The article presents information on the pedagogical aspects of the formation of professional competence of future teachers.

Keywords: competence, professional competence, competent approach, pedagogical personality, motivation, education, pedagogical technology.

Jamiyat talablarini qondirish hozirgi zamon o'qituvchisidan yuqori madaniyat, churur ma'naviyat, Vatan uchun javobgarlik hissi, mas'uliyatlilik, churur bilimga ega bo'lishi, o'z o'quvchilarining ijodiy potensialini rivojlantirishga pedagogik qiziqishi, innovatsion faoliyatga, o'z ustida ishlashga, kasbiy faollikkaga qobiliyatlilik va shu kabi boshqa bir qator sifatlarni talab etadi.

Shu sababli, komil shaxsni tarbiyalash masalasi bilan bir qatorda yana bir asosiy masala, ya'ni mutaxassisning kasbiy kompetentligini shakllantirish masalasi bugungi kunda o'ta muhim hisoblanadi. Mutaxassisning kompetensiyalarga ega, ya'ni faoliyatning qaysi usulini egallashi, nimalarni bajara olishi, nimalarga tayyorligini aniqlash – kompetentli yondoshuv deyiladi. Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchilarini tayyorlash sifatini boshqarishning konseptual muhim usullaridan biri – kasbiy ta'lim mazmunini modernizatsiyalashda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishdir.

Erkin va faol fikrlash, ta'lim-tarbiya jarayonini modellashtirish, ta'lim berish va tarbiyalashning yangi g'oya va texnologiyalarini ishlib chiqish va amalga oshirish qobiliyatlariga ega bo'lgan bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentlik darajasini oshirish muammosi zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda dolzarb hisoblanadi. Kasbiy kompetentli o'qituvchi birinchidan, o'quv-tarbiya jarayonida ijodkor ta'lim oluvchilarni shakllantirishga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi, ikkinchidan, o'z kasbiy faoliyatida ijobjiy natijalarga erisha oladi va uchinchidan, shaxsiy kasbiy imkoniyatlarini amalga oshira oladi.

Ta'lim mazmuni, shakli, pedagogik texnologiyalarning o'zgarishlari nazorat usullarini takomillashtirish kerakligini ham taqozo etadi. Jumladan, «bilimli» yondoshuv tizimida ta'lim oluvchini har bir fandan olgan bilim, malaka va ko'nikmalari nazorat qilinib, umumiyligi reyting bali o'zlashtirish ko'rsatkichi sifatida qo'llaniladi. Ta'lim oluvchining kompetentli darajasini aniqlashga qaratilgan «kompetentli» yondoshuvda, eng avvalo kompetentlikni aniqlash talab etilib, bu integrallashgan bilim, malaka va ko'nikmalarni aniqlash degani.

Ta'limda kompetentli yondoshuvni amalga oshirishning yetakchi g'oyasi shundan iboratki, bitiruvchilarda kompetensiyalar majmuasini shakllantirish ular egallashi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar majmuasi bilan aniqlanuvchi oliy ta'lim muassasasiga an'anaviy bo'lgan maqsadga to'laqonli mos kelmaydi.

Oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi tayyorgarligi sifatini tahlil qilish uchun kompetentlik bilan bog'liq mezonni tanlash shu bilan shartlashilganki, oliy ta'lim muassasasi uzoq mehnat faoliyati jarayonida amalga oshiriladigan kasbiylashtirishni emas, balki bitiruvchining kasbiy tayyorgarligi va kompetentligini ta'minlashi mumkin. Demak, kompetensiya ta'lim oluvchining ta'limiy (yoki kasbiy) tayyorgarligiga oldindan qo'yilgan talablarga qaysidir darajada uzoqlikni

"Oliy ta'lif sifati – yangi O'zbekiston taraqqiyotini yanada yuksaltirishning muhim omili"

nazarda tutsa, kompetentlik esa, tayyor bo'lgan shaxsiy sifatlarni nazarda tutar ekan. Turli davrlarda va turli mualiflarda turli xil ta'riflar uchraydi va ular quyidagilardan iborat: ma'lum mehnat faoliyati vazifalarini bajarish ko'nikmasi va qobiliyatiga egalik, psixik holat, ta'lif olish va umummadaniyat darajasi, pedagogik faoliyatni amalga oshirishga amaliy tayyorgarlik va nazariyaning birligi. Bular esa, kasbiy kompetentlikni pedagog shaxsining psixologik-pedagogik va fan sohasida bilimlarga egaligini, kasbiy ko'nikma va malakalari, shaxsiy tajribasini tavsiflovchi integrallashgan shaxsiy xususiyati sifatida aniqlashga imkon beradi. Shu bilan birga pedagog o'z faoliyati istiqbolini maqsad qilgan, bilimlarini boyitishga intiluvchan, o'ziga ishongan va kasbiy natijalarga erishish qobiliyatiga ega bo'lishi zarur.

Bo'lajak mutaxassis kasbiy kompetentligining shakllanishi nafaqat o'quv predmetlari ro'yxati, balki, fanni o'zlashtirish jarayonida shakllanadigan kasbiy ko'nikma va bilimlar, shuningdek, talabaning ijtimoiy, siyosiy va madaniy hayotdagi faol o'rnidan iborat ta'lif mazmuni orqali amalga oshiriladi. Buning barchasi majmuaviy holda, bo'lajak pedagog shaxsini shunday tarbiyalaydiki, u o'z-o'zini rivojlantirish va o'z komilligi ustida ishlay olish usullariga ega bo'ladi, bu esa, o'z vaqtida pedagogga «inson-inson» tizimida kasb ustasi - sub'yekti sifatida samarali faoliyatni ta'minlaydi. Bugungi kun talablariga javob bera oladigan, zaruriy sifatlar, bilim va ko'nikmalarga ega kompetentli mutaxassisni tayyorlash ilmiy asoslangan mos o'qitish tizimini yaratmasdan mumkin emas.

Oliy ta'lif muassasasi bitiruvchisining quyidagi asosiy kompetensiyalari ajratiladi: o'quv-bilish, axborotli, kommunikativ, ijtimoiy-foydali, shaxsiy o'z-o'zini takomillashtirish. Bularning barchasi bitiruvchiga kasbiy bilim, ko'nikma va keyingi hayotda faoliyat usullari majmuasini ongli ravishda qo'llash imkonini beradi. Kompetentlik - insonning faoliyatli tavsifi, shuning uchun uning tasniflanishi eng avvalo, faoliyat tasnifiga mos bo'lishi kerak. Umumiyl holda bular mehnat, o'quv, o'yin va kommunikativ kompetentliklar. Bularga yana quyidagilarni qo'shimcha qilish mumkin: kompetentlikni faoliyatning yo'naltirilgan ob'yekti bo'yicha tasniflash, u «inson-inson», «inson-texnika», «inson-badiiy obraz», «inson-tabiat», «inson-belgili tizim» sohalarida kompetentlikni beradi; kasblarning alohida sinflari va guruhlari sohasidagi kasbiy kompetentlik; aniq faoliyat (mutaxassislik) dagi predmetli kompetentlik.

Jamiyatning turli sohalarida esa quyidagi maxsus kompetentliklar ham talab etiladi: maishiy xizmat sohasida, san'at sohasida, sport sohasida va boshqalar.

«Bilimlilik» tafsiflari ham kompetentlikka kiradi va ijtimoiy bilimlar sohasi (matematika, fizika, gumanitar fanlar, biologiya va boshqa fanlar sohasida kompetentlik), ishlab chiqarish sohalar (energetika, transport, aloqa, mudofaa, qishloq xo'jaligi va boshqa sohalar) bo'yicha tasniflanadi.

Kompetentlikning asosi qobiliyatlardan iborat bo'lganligi uchun ularning har biri o'z kompetentligiga mos kelishi kerak. Qobiliyatlar eng umumiyo ko'rinishlari bilan kompetensianing jismoniy madaniyatdagi, aqliy sohadagi, umumo'quv, amaliy, ijrochilik, ijodiylik, badiiy, texnik, shu bilan birga pedagogik-psixologik, ijtimoiy va boshqa ko'nikmalariga mos keladi. Mutaxassisning kompetentlik modeli, bitiruvchi modeli emas, chunki kompetentlik, talaba ta'lif muassasasida ta'lif olishi davomida kerakli hajmda egallay olmaydigan muvaffaqiyatli faoliyat tajribasi bilan uzlusiz bog'liq.

Darslarda talabalarning ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarishi, rolli, imitasjon o'yinlarni ijodiy mustaqil ishlarda, rejalarini ishlab chiqishda qo'llashni kengaytirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bo'lajak pedagog kompetentligining muhim qadryatli-ma'noli komponentini shakllantirish zarur.

Talabalarning kasbiy kompetentligini rivojlantirishning asosiy sharoitlari quyidagilardan iborat: 1) tashkiliy-boshqaruvchanlik (o'quv reja, o'quv jarayoni grafigi, dars jadvalini tuzish, kompetentlik darajasini aniqlash mezonini ishlab chiqish, ta'lif jarayonini moddiy-texnik ta'minlash); 2) o'quv-uslubiy (mashg'ulotlar mazmunini tanlash, turli kurslarning integrasiyasi, yetakchi g'oyalarni ajratish); 3) texnologik (nazorat-baholash, o'qitishning faol shakllarini tashkil etish, kompetentlikka kiruvchi bilimlar guruhlarini aniqlash, innovatsion texnologiyalarni qo'llash); 4) psixologik-pedagogik (talabalarning rivojlanish tashxisini amalga oshirish, o'qitishga

motivatsiyani rag'batlantirish, kompetentlikning mezonini aniqlash, talabalarni hamkorlikda ishlashga yo'llash).

Bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligi tuzilmasi uning pedagogik ko'nkmalari orqali, ko'nkmalar (nazariy bilimlarga asoslangan va pedagogik masalalarni yechishga yo'naltirilgan bilimlar) esa, bosqichma-bosqich rivojlanuvchi harakatlar majmuasi orqali aniqlanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Belkin A.S. Kompetentnost. Professionalizm. Masterstvo. - CHelyabinsk. - 2004. - 176 s.
2. Imamova Shafoat Mahmudovna. A SIMULATION TRAINER'S EDUCATIONAL COMPETENCE IN THE PROCESS OF FORMING STUDENTS' PROFESSIONAL COMPETENCE// INTERNATIONAL JOURNAL ON INTEGRATED EDUCATION Volume 6, Issue 9, Sep- 2023 P.75-77.
3. Imomova Shafoat Mahmudovna. TALABALARNING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISHGA YANGICHA YONDASHUVLAR// Educational Research in Universal Sciences. VOLUME 2 | SPECIAL ISSUE 14 | 2023, C.1075-1081
4. Imamova Sh.M. Methodology of Development of Programming Skills in Mathematical Systems in Students Based on Computer Simulation Trainers// NATURALISTA CAMPANO Volume 28 Issue 1, 2024, -pp. 551-557.

JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI KASBIY TAYYORGARLIK TIZIMINI MODERNIZATSİYALASHDA İNNOVATSION TEKNOLOGİYALARNING ROLİ

Sharipov Allabergan Kamilovich.

p.f.n., dots. Ma'mun universiteti NTM. Sport bo'limi boshligi. +998942304030,
sharipovallabergan@gmail.com

Jammatov Jasurbek Sharipovich.

p.f.b.f.d. (PhD), dots. Ma'mun universiteti NTM "Umumkasbiy fanlar" kafedrasi dotsenti.
+998904359555, jasurjammatov@gmail.com

Annotasiya. Maqolada jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislarini kasbiy tayyorlash tizimini modernizatsiya qilishda innovatsion texnologiyalarning roli ko'rib chiqiladi. Kadrlar tayyorlash sifatini oshirish uchun ta'lim jarayoniga zamonaviy yondashuvlarni joriy etish zarurligi asoslab berilgan.

Аннотация. В статье рассматривается роль инновационных технологий в модернизации системы профессиональной подготовки специалистов по физическому воспитанию. Обосновывается необходимость внедрения современных подходов в образовательный процесс для повышения качества подготовки кадров.

Annotation. The article examines the role of innovative technologies in the modernization of the system of professional training of specialists in physical education. The necessity of introducing modern approaches into the educational process to improve the quality of personnel training is substantiated.

Kalit so'zlar. Jismoniy tarbiya, innovatsion texnologiyalar, kasbiy tayyorgarlik, raqamlı texnologiyalar, elektron ta'lim, mutaxassislar tayyorlash, mobil ilovalar, kasbiy tayyorgarlik.

Ключевые слова. Физическое воспитание, инновационные технологии, профессиональная подготовка, цифровые технологии, электронное обучение, подготовка специалистов, мобильные приложения, профессиональная подготовка.

Keywords. Physical education, innovative technologies, professional training, digital technologies, e-learning, specialist training, mobile applications, professional training.

Kirish. Zamonaviy jamiyat ta'lim sifatiga, ayniqsa, jismoniy tarbiya sohasiga yuqori talablarni qo'yadi. O'quv jarayonining globallashuvi va raqamlashtirilishi sharoitida jismoniy tarbiya bo'yicha mutaxassislar tayyorlash tizimiga innovatsion texnologiyalarni joriy etishning

5-SHU’BA.....	322
OLIY TA’LIM TIZIMIDA ILM-FANNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHLARI VA DOLZARB MASALALARI	322
B.Q.Xodjayev. OLIY PEDAGOGIKA O’QUV YURTIDA ILM – FANNI YANADA RIVOJLANTIRISHNING USTUVOR YO’NALISHIDA	323
Кибриё Хасанова. СЕМЕЙНАЯ ЖИЗНЬ – ЭТО ЦЕЛАЯ НАУКА, НАУКА СЛОЖНАЯ, РАЗВИВАЮЩАЯСЯ, КОТОРУЮ НУЖНО ИЗУЧАТЬ И ИЗУЧАТЬ	325
Yodgorov Nodir Djalolovich. CHIZMACHILIK O’QITUVCHILARIDA KASBIY KO’NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING METODIK ASOSLARINI TAKOMILLASHTIRISH MUAMMOLARI	328
Boqiyev Baxrom O`ktamovich. YANGI O’ZBEKISTON – ILMIY IJOD UCHUN KENG IMKONIYATLAR MAKONI	331
Axmatova Guli Xurram qizi. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALARING TA’LIM JARAYONIDA SAMARDORLIGI	333
Boboyorov Sherzod Shuxratovich. SPORTCHILARDA YUZAGA KELADIGAN SALBIY EMOTSIONAL O’ZGARISHLARNI YENGISHGA OID PSIXOLOGIK TAVSIYALAR	336
Gulov Sadritdin Niyazovich. YOSHLAR MA’NAVIYATINI YUKSALTIRISHDA MUSIQANING O’RNI	338
I.U.Qurbanova ShAXS KAMOLOTIDA OILAVIY TARBIYANING O’RNI	341
Ibatova Nigora Istamovna. CHIZMACHILIK O’QITUVCHILARIDA KASBIY KO’NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK XUSUSIYATLARI	343
S.A.Ibrohimova. “OLIY TA’LIM SIFATI – YANGI O’ZBEKISTON TARAQQIYOTINI YANADA YUKSALTIRISHNING MUHIM OMILI”	345
M.A.Jalilova. PSIXOLOG MUTAXASLARDA REFLEKSIYANI RIVOJLANTIRISHNING OZIGA XOS XUSUSIYATLARI	348
N.B.Ismatova. TA’LIM JARAYONIDA QO’LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR	352
N.B.Ismatova. TA’LIM JARAYONIDA QO’LLANILAYOTGAN ZAMONAVIY TEXNOLOGIYALAR	357
Nasirdinova Soliha Ravshanbek qizi. O’QUVCHILARDA SANOGEN TAFAKKURNI NAMOYON BO’LISHINING O’ZIGA XOS PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI	362
Nuraliyeva Farida. INTEGRATIV YONDASHUV ASOSIDA OTMLARIDA TA’LIM SIFATINI BOSHQARISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH OMILLARI	365
O.U.Qurbanova. BOSHLANG’ICH SINF MATEMATIKA DARSLARIDA TAYANCH KOMPETENSIYALARNI RIVOJLANTIRISH METODIKASI	368
O’.U.Qurbanova. BOSHLASHG’ICH SINFLARDA TARBIYA FANINI O’QITISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH	370
S.H. Mirzayev. OLIY TA’LIMDA MARKETING, MARKETINGDA STRATEGIK REJALASHTIRISH MASALASI	372
Imomova Shafoat Mahmudovna. BO’LAJAK O’QITUVCHIDA KASBIY KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI	374
Sharipov Allabergan Kamilovich, Jammatov Jasurbek Sharipovich. JISMONIY TARBIYA MUTAXASSISLARINI KASBIY TAYYORGARLIK TIZIMINI MODERNIZATSİYALASHDA INNOVATION TEXNOLOGIYALARING ROLI	377
Shamsiyev Sherzod Istamovich, Axatov Mirzabek Muxiddin o’g’li. AKADEMİK XONANDALIKDA VOKAL VA ZAMONAVIY QO’SHEQLARNI IJRO ETISH USLUBLARI	379
Tosheva Mohinur Yusupovna. O’SMIRLARNING QO’RQUVI VA ULARNING STRESS HAMDA TAJOVUZKORLIK BILAN BOG’LIQLIGI	382